

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA  
MUAMMO VA ECHIMLAR

*Qo'chqarov Xurshid Baxramovich - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
Andijon viloyati boshqarmasi sh'o'ba mudiri*

**Annotatsiya:** Maqolada muallif tomonidan professional ta'lim tizimini rivojlantirish xamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari taxlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, professional ta'lim muassasalari, iqtisodiyot, kasb va mutaxassisliklari, ilmiy salohiyat.

**Аннотация:** В статье автор проанализировал вопросы развития системы профессионального образования и подготовки конкурентоспособных кадров.

**Ключевые слова:** образование, профессиональные учебные заведения, экономика, профессии и специальности, научный потенциал.

**Abstract:** In the article, the author analyzed the issues of developing the professional education system and training competitive personnel.

**Key words:** education, professional educational institutions, economy, professions and specialties, scientific potential.

**KIRISH**

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib professional ta'limi tizimi uchun kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish muhim hisoblandi.

Professional ta'lim tizimini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik taraqqiyot tendensiyalarni, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini tadbiq qilgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, kasblar va mutaxassisliklar ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muhim hisoblanib bu o'z navbatida jamiyatimiz rivojining muhim bosqichidir. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, iqtidorli, tashabbuskor yuqori

malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi. Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxonalar va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatliligi, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi, iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyati, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qat'iy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Respublikadagi kasb-hunar kollejlari faoliyati tugatilib, halqaro andozalarga mos bo'lgan, ya'ni YuNESKO halqaro tasniflagichi (keyingi o'rinlarda Halqaro tasniflagich yoki MSKO) ning 3, 4, 5 darajalariga mos keluvchi professional ta'lim tizimi joriy etildi. Hududlarda yangi professional ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, professional ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Hozirgi zamon sharoitida professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni belgilangan o'quv me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan bo'lib, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlari ehtiyojlari asosida integratsiyalashtirilgan holda hamkorlikda ishlab chiqilmoqda. Halqaro andozalarga mos keluvchi professional ta'lim tizimida qanday muammo va kamchiliklar mavjud? degan savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob berishda muammo va yechimlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

YAqin yillar ichida butun dunyoda inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi yuqumli kasalliklar jumladan, koronavirus infeksiyasi kabi viruslar aholi o'rtasida gigiena qoidalariga rioya etish, ijtimoiy masofani saqlash kabi profilaktik chora-

tadbirlar ta'lim muassasalarida ham o'quv jarayonini an'anaviy shaklidan masofaviy ta'limga o'tishga ehtiyoj tug'ildi. Oliy ta'lim tizimida aksariyat oliy ta'lim muassasalarida MOODLE dasturiy ta'lim platformasi asosida masofaviy ta'lim tashkil etildi. Biroq ayni shu vaqtda professional ta'lim tizimida ham o'quv jarayonini masofaviy tarzda amalga oshirishda "Aqlli ta'lim" platformalari mavjud emasligi sababli ijtimoiy tarmoqlar va turli xil mesendjerlar orqali o'quv mashg'ulotlari olib borildi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini pasayishi, nazorat tizimidagi muammolar, o'quv mashg'ulotlarga bilim oluvchilarning o'z vaqtida qatnashmasligi, hududlardagi internet tarmog'idagi muammolar, mashg'ulot materiallari bit-xajmi turlicha bo'lgani sababli ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar hamda pedagog xodimlar va bilim oluvchilarda ortiqcha internet trafiklari sarflanishi oqibatida xarajatlarning ko'payishiga va buning natijasida ayrim bilim oluvchilar dars mashg'ulotiga qatnashmasligi kabi ta'lim uzluksizligiga salbiy ta'sir etuvchi muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 163-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2021/2022 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida "hayot davomida ta'lim" prinsipi asosida "dual" ta'lim tizimi joriy etilishi ko'rsatilgan bo'lib, bilim oluvchilar hafta davomida kamida 2 kun ta'lim muassasasida bilim olib qolgan ish kunlari o'zlarining kasb va mutaxassisliklari mos ravishda korxonalarda yoki ishlab chiqarish tarmoqlarida o'zlarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashi mumkin bo'lib, korxonalar va tashkilotlar bilim oluvchilarga ish xaqi to'lashi nazarda tutilgan.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globallashtirish sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi. Zero, kundalik hayotimizda, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz lozim. Ta'lim sifatini rivojlantirishda bu kabi omillar yetakchi rol o'ynashi davr taqozosidir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi professional ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 715-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 715-son Qarori.

5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 yil.